



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

GERMANY

CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SCIENCE, ENGINEERING AND
TECHNOLOGY**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY:
a collection scientific works of the International scientific conference –
Gamburg, Germany, 2026 Issue 2

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference « **INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY** ». Which took place in Gamburg, 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY HAYOTI VA IJODINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI.

Boliboyeva Vasila Sodiq qizi

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Islom “iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar” ta’lim yo’nalishi 1-bosqich talabasi

+(998)99.235.24.26.

Annotatsiya: Uchbu maqola Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan. Behbudiy o‘zining ma‘rifatparvarlik faoliyati, matbuotdagi ishtiroki va dramaturgiyadagi muhim o‘rni bilan tanish. Maqolada uning bolalik davri, ta’lim olish jarayoni, “Padarkush” tragediyasining mazmuni va ijtimoiy ta’siri, Behbudiyning Turkistondagi milliy uyg‘on harakatidagi roli, yozgan maqola va jurnallari tahlili. Behbudiy xalqni bilimga chorlashi va ma’naviy yuksalish yo‘lidagi g‘oyalari bugungi kunda meros qolgan bo‘lib, u O‘zbekistonning ma’naviy va madaniy taraqqiyotida o‘chmas iz qoldirdi.

Kalit so‘zlar: Ma‘rifatparvarlik, milliy uyg‘onish, milliy yuksalish, “Padarkush asari”, ijtimoiy adolat, ma’naviy yuksalish, maqollari, Turkiston, dramaturg.

Abstract: This article is devoted to the life and work of Mahmudkhodja Behbudiy. Behbudiy is known for his educational activities, participation in the press and an important role in dramaturgy. The article discusses his childhood, educational process, the content and social impact of the tragedy "Padarkush", Behbudiy's role in the national awakening movement in Turkestan, and an analysis of his articles and journals. Behbudiy's ideas of calling the people to knowledge and spiritual elevation have been preserved today, and he left an indelible mark on the spiritual and cultural development of Uzbekistan.

Keywords: Enlightenment, national awakening, national rise, "Padarkush" work, social justice, spiritual rise, articles, Turkestan, playwright.

Аннотация: Данная статья посвящена жизни и творчеству Махмудходжи Бехбудия. Бехбудий известен своей просветительской деятельностью, участием в прессе и важной ролью в драматургии. В статье рассматриваются его детство, процесс обучения, содержание и социальное влияние трагедии «Падаркуш», роль Бехбудия в движении национального пробуждения в Туркестане, а также анализируются его статьи и журналы. Идеи Бехбудия о призыве народа к знаниям и духовному возвышению сохранились до наших дней, и он оставил неизгладимый след в духовном и культурном развитии Узбекистана

Ключевые слова: Просвещение, национальное пробуждение, национальный подъем, работа «Падаркуш», социальная справедливость, духовный подъем, статьи, Туркестан, драматург.

XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, milliy ong va ma‘daniyatning uyg‘onish jarayonlari o‘zbek xalqining yangi tarixiy bosqichiga kirishda muhim ro‘l o‘ynadi. Mazkur davrda shakllangan jadidchilik harakati jamiyatni ma‘rifat, ilm-fan va zamonaviy tafakkur asosida



yangilashni maqsad qilgan milliy islohatlar harakati sifatida o'z o'rniga ega bo'ldi. Ana shu harakatning yirik namoyondalaridan biri, Turkiston ma'rifarpavrlarining peshqadami, ziyoli, adib, dramaturg, publitsist va siyosiy arbob -Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919) bo'lgan. Behbudiy o'z davrida nafaqat zamonaviy o'zbek matbuotining balki milliy dramaturgiyaning asoschisi sifatida ham e'tirof etiladi. U tomonidan nashr etilgan "Samarqand" gazetasi (1906) va "Oyna" jurnali -1913 1915 o'zbek jurnalistikasi tarixida yangi bosqichni boshlab bergan nashrlar hisoblanadi. Tadqiqotlarga ko'ra, Behbudiy faoliyat yuritgan davrda Turkiston o'lkasida 100 ga yaqin yangi usuldagi maktablar tashkil etilgan bo'lib, ularning aksariyati jadid ziyolilari tashabbusi bilan ochilgan (O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti ma'lumotlariga ko'ra, 1914-yilga kelib Farg'ona vodiysi va Samarqand viloyatlarida 50 dan ortiq yangi usul, maktablari faoliyat ko'rsatgan). Behbudiy-o'z, pedagogik qarashlarida xalqni ma'rifat orqali ozodlikka eltish g'oyasini ilgari surgan, ilmni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida talqin etgan. Uning "Risolai jadida", "Muallim avval", "Padarkush" kabi asarlari xalqning ijtimoiy tafakkurini uyg'otishda katta rol o'ynagan. Ayniqsa, 1913-yilda yozilgan "Padarkush" dramasi o'zbek milliy teatrining shakllanishida burilish yasab, o'z davrining ijtimoiy illatlarini sahna orqali fosh etgan ilk dramatik asar sifatida tarixda qoldi. Bugungi kunda Behbudiy merosi nafaqat o'zbek xalqining ma'naviy boyligi, balki butun Markaziy Osiyo jadidchilik harakati tarixini o'rganishda beqiyos manba sifatida qadrlanadi. Mustaqil O'zbekiston davrida uning nomi qayta tiklandi, asarlari nashr etildi, 1992-yilda "O'zbekiston xalq ma'rifatchisi" unvoni bilan e'tirof etildi. Shu bois, Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ijodi haqida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar nafaqat tarixiy adolatni tiklash, balki milliy o'zlikni anglash jarayonida ham g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Mahmudxo'ja Behbudiy shaxsiyati va ijodiy merosi o'zbek jadidchilik harakati tarixida alohida o'rin tutgani sababli, bu mavzu bo'yicha tarixchi, adabiyotshunos, madaniyatshunos va pedagog olimlar tomonidan keng ko'lamda ilmiy izlanishlar olib borilgan. Behbudiy faoliyatini o'rganishda dastlabki tadqiqotlar mustaqillikdan avvalgi davrda boshlangan bo'lsa-da uning merosiga xolis yondashuv 1990-yillardan keyin shakllandi.

Jadval: Behbudiy faoliyatining ta'lim sohasidagi asosiy ko'rsatkichlar.

Ko'rsatkichlar	Yil	Miqdor	Izoh
Yangi, usuldagi maktablar (Turkiston)	1917	102 ta	Shundan-20 tasi Behbudiy faoliyat
Behbudiy-darsliklari soni	1904-1918	5 ta	"Muallim avval" "Risolai jadida"
Chop etilgan darslik	1904-1918	20 000	O'qituvchi va o'quvchilar uchun
Ayollar ta'limidagi tashabbuslar	1913	3 ta maktab	Samarqand, Buxoroda ochilgan edi.



Mazkur ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Behbudiy faoliyatining markazida ta'lim tizimi milliyalashtirish va zamonaviylashtirish g'oyasi turgan. Uning qarashlari Ismoil G'aspirali va Munavvarqori Abdurashidxonov g'oyalari bilan qiyoslaganda, Behbudiy ta'limni diniy-ma'rifiy asos bilan uyg'unlashtirganligi bilan farq qiladi. Behbudiy 1908-yilda "Samarqand" 1913 yilda esa "Oyna" jurnalini tashkil etdi. Behbudiy haqida gapirganimizda uning "Padarkush" ma'nosi (Ota qotili) asarini tariflamasdan o'tishimiz joiz emas. Behbudiy tomonidan 1913-yilda yozilgan "Padarkush" asari o'zbek teatr san'ati tarixida birinchi ijtimoiy-drama janrini boshlab berdi. 1914-yilda Samarqanddailk, bor sahnalashtirilgan bu asar 1915-yilga kelib Toshkent, Andijon va Qo'qonda ham qo'yilgan. O'sha davr matbuotida e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, ushbu drama bir yil ichida 20 martadan ortiq namoyish etilgan va 10 mingdan ziyod tomoshabin tomonidanko'rilgan (manba: "Turkiston viloyatining gazetasi, 1915 yil). Asarda o'sha davr jamiyatdagi savodsizlik, otionalarning farzand tarbiyasiga befarqligi, ayollar taqdiri va yoshlar ta'limi muammolari yoritilgan. Uning maqsadi xalqni milliy o'zligini anglash, madaniyatini asrash va taraqqiyot yo'liga boshlab chiqish edi. Bundan sal kam 100 yil oldin sharqshunos Laziz Azizzoda Behbudiy to'g'risida juda o'rinli yozgan: "Agar O'zbekistonda Navoiy va Ulug'bekdan boshqa uchinchi ilm va ma'rifat arbobiga-haykal qo'yiladigan bo'lsa, shubhasiz bu Behbudiyning haykalidir"

Behbudiy bor yog'i 45 yil yashagan bo'lsada xalqqa va jamiyatga juda katta manfaatlar keltiradigan ishlari bilan tarixda qoldi. Bundan tashqari, u Mahmudxo'ja Behbudiy padari buzrukvor nomi berilgan "Nashriyoti Behbudiya" xususiy nashriyot egasi, Samarqand, Buxoro, Qo'qon, va Andijon shaxarlaridagi kitob do'konlarining xo'jayini, "Oyna" jurnali muxarriri sifatida ham mashhur bo'lgan. Xususan, Samarqanddagi "Behbudiya" kutubxonasi o'z uyida, ruslar istiqomat qiladigan qismida ochilgan bo'lib, bu shunchaki kutubxona emas, balki do'kon ham edi. Bu maskanga tashrif buyuruvchilar chet el mamlakatlari va albatta Turkistonda chop etilgan kitoblarni ko'rib, sotib olishlari mumkin bo'lgan. Zamondoshining guvohlik berishicha, bu kutubxona Behbudiy vafotidan so'ng Turkistonda eng yirik kutubxonalardan biri bo'lib qoldi

Uning faoliyati, ta'lim va islohatlar borasidagi g'oyalari hukumat tomonidan xavfli deb qaralgan va unga qarshi chora tadbirlar ko'rilgan. Behbudiyning 1919-yilda qatl etilishi uning millatparvarlik yo'lidagi kurashning achchiq yakuni bo'ldi. Uning kunga kelib Behbudiy hayoti va ijodining muhim va dolzarbligi shundaki, u necha necha yillar oldin bizning bugungi kundagi xatolarimiz, kamchiliklarimiz, bizni ham ma'naviy ham iqtisodiy jihatdan yemiruvchi illatlar xususida bot-bot aytgan. Bunga misol qilib, "Bizni kemiruvchi illatlar deganda zahr-u maraznimi gumon etarsiz, yoinki sil yo mohovliknimi dersiz, yo'q andin ham yomonroq, andin ham jonxaroj, bevogar, vayron va g'arib etguvchi bir dard biz Turkistonliklarni bir shaxar va bir qishloqqa yoinki, yarim madaniy yarim vaxshiy sinflarimizgacha istiloh etib, butun tirikchiligimizga sezilgan, bizni



inqirozga, tahlikaga va jahannamga yumalatayotgan to'y va aza ismli dushmanidir". Bugungi kunimizga nazar solsak o'zbek xalqi 1 kunlik to'y yoki 3 kunlik aza deb qancha qanchalab ovoragarchilik va isrofgarchilikka yo'l qo'yayotganlarini ko'rmasdan qolmaymiz. Afsus bilan aytiladigan joyi ham shuki insonlar butun umr ishlab topgan jamg'armalarini yoki necha yillardan beri asrab kelayotgan mollarini, yoinki yaxshi niyatlar bilan eski nimchasining ichki cho'ntagiga solib qo'ygan pullarini ham yig'ib to'y o'tkazishi qanchalar to'g'ri?! Bir kunlik to'y deb odamlar bilsin deb, xo'jakor'sin qilib, dabdaba bilan to'ylar qilishning nima keragi borku undan kim manfaatdor, yetimlar qolib, to'qlarning qornini to'ydirishning kimga keragi bor. Afsuski, bu vaziyat qo'l bilan sanoqlik emas, balki sanog'i tugamas darajada ko'p.

Behbudiy hayoti va ijodi, uning Turkiston uyg'onish davridagi roli va ma'rifatparvarlik faoliyati, shubhasiz, nafaqat yosh avlod uchun balki butun insoniyat uchun ham madaniy-ma'rifiy va ijtimoiy holatda muhim o'rin tutadi. Uning xalqni bilim va ma'rifatga chorlovchi g'oyalari xozirgi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Shunday ekan biz yosh avloddan so'raladigan va talab qilinadigan asosiy vazifalardan biri, bu hozirgi kundagi juda murakkab tahlikali davrda turli xil yod g'oyalarga qarshi imunitet xosil qilib, o'z milliy g'ururimizni unutmasdan Behbudiy va u singari ma'rifatparvarlar qoldirgan boy merosni chuqur anglab, unga amal qilgan holda O'zbekistonning milliy uyg'onishi va madaniy yuksalishida mustahkam poydevor bo'lib, Vatanimizning nufuzini va dovrug'uni nafaqat O'rta Osiyoga balki butun dunyoga baralla namoyish etishdan iboratdir.

Foydanilgan Adabiyotlar:

1. Mahmudxo'ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. D.A. Alimova, D.A. Rashidova. –Toshkent" Akademiya" nashriyoti. 1999. –54.b.
2. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. II jild. –Toshkent:
3. "Akademnashr". 2021. –126.b.
4. Mahmudxo'ja Behbudiy-milliy uyg'onish harakatining asoschisi. "Complex Print" nashriyoti. –Toshkent: 2019. –126.b.
5. Vadud Mahmud. Tanlangan asarlar . –Toshkent: "Ma'naviyat". 2007. –157.b.
5. Ziyouz.com <https://www.ziyouz.com>
6. Wikipedia <https://uz.wikipedia.org>
6. Turkiston viloyatining gazetasi. (1915). "Padarkush dramasi Samarqandda namoyish etildi".
7. Abdulkarimova, Z. (2018). Mahmudxo'ja Behbudiy darsliklarining metodik tahlili. –"Ta'lim va innovatsiyalar" jurnali, No2, 45–52-betlar.
8. Qosimov, B. (1997). Jadidchilik va ma'rifat. –Toshkent: O'zbekiston.
9. Turdiyev, Sh. (2003). Mahmudxo'ja Behbudiy va o'zbek matbuoti tarixi. –Toshkent: Fan nashriyoti.